

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI



“ELEKTRON TIJORAT TIZIMLARI”

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000 -	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000 –	Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60412800–	Elektron tijorat

TOSHKENT 2023

Fan/modul kodi ECST16MBK Bakalavriat	O'quv yili 2023-2024	Semestr 5	ECTS- KREDIT 6
Fan/modul kodi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus/ingliz		Haftadagi dars soati 5
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Elektron tijorat tizimlari	74	106	180
<p>1. I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda elektron tijorat faoliyatini - axborot tizimlaridan foydalangan holda tovarlarni sotish, xizmatlar ko'rsatishga doir tadbirkorlik faoliyatining nazariy jihatlarini o'rgatish hamda ushbu bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarda elektron tijoratning sir-asrorlari, elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari, elektron tijoratning huquqiy asoslari, horijiy tajribasi, elektron tijorat modellari, elektron savdo turlari, internet marketing, elektron magazinlar, internetda to'lov tizimlari, elektron savdo turlari va internet reklama to'g'risidagi tushunchasiga ega bo'lib, o'z bilimini oshiradi.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Elektron tijorat tizimlari faniga kirish. Elektron tijorat tizimlari haqida umumiy tushuncha. Fanning mazmuni va mohiyati. Elektron tijorat tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi.</p> <p>2-mavzu. Elektron tijorat (ET) tizimining asosiy tushunchalari va tamoyillarini o'rganish. Ushbu tizimning asosiy xarakteristikalari va afzalliklarini aniqlash.</p> <p>3-mavzu. Elektron tijoratning biznes jarayonlariga integratsiyalashuvi. Elektron tijorat modellari (B2C, B2B, C2C). Elektron tijorat shakllari (internet-do'konlar, auktsionlar, to'lov tizimlari). An'anaviy biznes bilan elektron tijorat integratsiyasi.</p> <p>4-Mavzu. Elektron tijoratni yaratish va boshqarish. Onlayn do'kon uchun platforma tanlash. Internet-do'konni yaratish va loyihalash. Internet-do'konni optimallashtirish va reklama qilish.</p> <p>5-Mavzu. Elektron tijoratda huquqiy omillar va uni tartibga soluvchi jihatlari. Elektron tijoratni tartibga soluvchi me'yoriy va huquqiy hujjatlar. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish. Elektron tijoratda xavfsizlik jihatlari</p> <p>6-Mavzu. Ma'lumotlarni tahlil qilish va elektron savdoni boshqarish. Mijozlar ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish. Mijozlar tajribasi va sodiqlikni boshqarish.</p>			

7-Mavzu. Elektron tijorat tizimida logistika. Zahirani boshqarish va logistika. Mijozlarga xizmat ko'rsatish va mijozlarni saqlab qolish. Xalqaro elektron tijorat.

8-Mavzu. Xodimlarni o'qitish va mijozlarni qo'llab-quvvatlash. Xodimlarni elektron tijorat bilan ishlashga o'rgatish va foydalanuvchilarga yuqori sifatli texnik yordam ko'rsatish.

9-mavzu. Elektron tijorat texnologiyalari. Internet va tarmoq protokollari. Veb ishlab chiqish va dizayn. Elektron to'lov tizimlari va xavfsizlik.

10-mavzu. Elektron tijoratda marketing va reklama. Maqsadli auditoriyani yaratish va mahsulotni joylashtirish. Onlayn reklama va SEO optimallashtirish. Marketing samaradorligini tahlil qilish va yaxshilash.

11-Mavzu. Web sayt – elektron tijoratni asosi sifatida. Web-sayt joylashtirish. Web-saytni tasniflash. Web-saytlarni yaratish uchun asosiy texnologiyalar. Ma'lumotlar bazasini yaratish uchun dinamik saytdan foydalanish.

12-mavzu. Elektron tijoratda to'lov tizimlari. Elektron pullar tizimiga oid asosiy tushunchalar. O'zbekistonda elektron pullardan foydalanish tartibi. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi.

13-mavzu. Elektron magazinlar, internet maydonchalar, internet aukstionlar. Savdo maydonchalari. Elektron magazinlar, internet maydonchalar va internet aukstionlar haqida umumiy tushunchalar. Elektron tijoratda axborot xavfsizligi. Elektron tijoratga yo'naltirilgan xavflarning turlari. Elektron biznes xavfsizligi sohasidagi asosiy muammolar.

14-mavzu. Elektron raqamli imzo. Elektron raqamli imzoning asosiy tushunchasi. Elektron raqamli imzoning zarurligi va undan foydalanish muddati.

15-mavzu. Elektron hujjat va elektron hujjat almashinuvi. Elektron hujjat. An'anaviy va elektron hujjat almashish. Elektron hujjat almashish tizimlari.

16-mavzu. Internet marketing va web tahlil. Asosiy internet marketing vositalari. Internet marketing afzalliklari va kamchiliklari. Onlayn savdo xususiyatlari. Internet reklama va uning elektron tijoratdagi o'rni. Internet reklama haqida umumiy tushuncha. Ijtimoiy tarmoqlarda marketing va reklama. Kreativ reklama xizmatlari.

17-mavzu. Ijtimoiy tarmoqlar. Bloglar. Elektron tijoratda ijtimoiy kanallardan foydalanishning kichik biznes va yakka tadbirkorlar uchun muhim ahamiyati.

18-mavzu. Mavjud elektron do'konlar saytlari tahlili. Internet do'konlar faoliyat mexanizmi. Internet-do'konlar nazariy va tashkiliy xususiyatlari. Internet-do'konlar va ularning tiplari. Internet-do'konlari tarkibiy tuzilishi. Internet do'konlarga xizmat qiluvchi asosiy dasturiy mahsulotlar.

19-mavzu. Elektron tijoratda funksional imkoniyatlarini kengaytirish va rivojlantirish. Elektron tijoratdagi yangi texnologiyalar va tendentsiyalarni o'rganish. Mijozlarning ehtiyojlarini qondirish uchun yangi xususiyatlar va xizmatlarni joriy etish.

<p>20-mavzu. Elektron tijoratdagi global tendentsiyalar. Xalqaro elektron tijorat. Texnologik innovatsiyalar va elektron tijorat. Elektron tijoratning kelajagi</p> <p>III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Elektron tijorat tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi 2. Elektron tijorat (ET) tizimining asosiy tushunchalari va tamoyillarini o'rganish 3. Elektron tijoratning biznes jarayonlariga integratsiyalashuvi 4. Elektron tijoratni yaratish va boshqarish 5. Elektron tijoratda huquqiy omillar va uni tartibga soluvchi jihatlari. 6. Ma'lumotlarni tahlil qilish va elektron savdoni boshqarish 7. Elektron tijorat tizimida logistika 8. Xodimlarni o'qitish va mijozlarni qo'llab-quvvatlash 9. Elektron tijorat texnologiyalari 10. Elektron tijoratda marketing va reklama 11. Web sayt – elektron tijoratni asosi sifatida 12. Elektron tijoratda to'lov tizimlari 13. Elektron magazinarlar, internet maydonchalar, internet auksionlar 14. Elektron raqamli imzo 15. Elektron hujjat va elektron hujjat almashinuvi <p>Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.</p> <p>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar mavzulari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Elektron tijorat tizimlari fanining asosiy tushunchalari. 2. Elektron tijorat tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi. 3. Elektron tijoratning vujudga kelish tarixi. 4. Xorijda elektron tijoratning rivojlanishi. 5. Mamlakatimizda elektron tijoratni rivojlantirish bosqichlari. 6. Elektron tijoratning modellari. 7. Elektron tijorat modellarning mazmun va mohiyati. B2B, B2C, B2G, C2B, C2G segmentatsiyasi va o'ziga xoslik. 8. Elektron tijorat rivojlanish bosqichlari. 9. Elektron tijorat rivojlanish bosqichlarining ketma-ketligi. 10. O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar. 11. Elektron tijoratning an'anaviy savdo turlaridan farqi. Elektron biznesning an'anaviy savdo turlaridan farqining umumiy tushunchasi. 12. Internetda to'lov tizimlari. 13. Internet banking. O'zbekistonda elektron pullardan foydalanish tartibi. 14. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi. Elektron pullar tizimiga oid asosiy tushunchalar.
---	---

<ol style="list-style-type: none"> 15. Qidiruv tizimlarining elektron tijorat va veb-saytlarni targ'ib qilishdagi o'rni. Qidiruv tizimi. 16. Mashhur internet qidiruv tizimlari. Ixtisoslashgan axborot tizimlari. 17. Elektron tijorat tizimini tashkil etishning asosiy sxemalari. 18. Elektron tijorat tizimini tashkil etish. Elektron tijorat bozorining mahsuli 19. Raqamli iqtisodiyotda elektron tijoratni roli. 20. Raqamli iqtisodiyotda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi. 21. Elektron tijoratda elektron xabarlar yoki elektron hujjatlar ommaviy jo'natmalari, reklamani joylashtirish tartibi. 22. Mamlakatda elektron tijoratni rivojlanganligini baholash. 23. Mamlakatda elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. 24. Tovarlar (xizmatlar)ni Internet tarmog'i orqali realizatsiya qilish uchun zamonaviy mexanizm va tartib-taomillarni joriy qilish. 25. Mahalliy tadbirkorlik sub'ektlari mahsulotlarini eksport qilish geografiyasini kengaytirish va hajmini oshirish. <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fan bo'yicha talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi.</p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> – elektron tijorat jarayonlari faoliyatini shakllantirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar, rivojlantirish dasturlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; – aloqa sohasida tijorat jarayonlarini amalga oshirish xarakteristikasi; – elektron tijorat jarayonlari tashkilloshirish, nazorat qilish, elektron tijorat modellarini tahlil qilish usullari va yo'nalishlarini bilishi va ulardan foydalana olishi; – elektron tijorat jarayonlarini boshqarish faoliyatini tashkil etishning psixologik va ijtimoiy masalalarini qo'llash ko'nikmalari; – biznes jarayonlarni boshqarish va tashkil qilish malakalariga ega bo'lishlari kerak.
<ol style="list-style-type: none"> 4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruzalar; • Interfaol keys-stadilar; • Seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • Guruhlarda ishlash • Taqdimotlarni qilish • Individual loyixalar • Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. 5. VII. Kreditlarni olish uchun talabalar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalari to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushoxada 	

	<p>yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Elektron ijorat. M.S.Yakubov, Q.Sh.Shakarov, Sh.E.Sindarov. O'quv qo'llanma. Toshkent - 2021. 2. E-biznes asoslari va mobil e-biznes X.N.Zayniddinov, F.M.Alimova. O'quv qo'llanma. Toshkent - 2018. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Elektron to'lov tizimlari M.Ya.Abdul-Azadova. Toshkent - 2018. Internetdagi tahdidlardan himoya. A.Tulepov, yordamchi o'quv qo'llanma Toshkent - 2015 <p>Axborot manbalar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. 2. https://my.gov.uz-Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali 3. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 4. www.economist.com <p>Fan dasturi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Kengashining 2023 yil "31 08" dagi - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
7.	<p><u>9(733)/1(733)</u></p> <p>Fan/modul uchun ma'sullar:</p> <p>Ismoilova G.F - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri, i.f.n., doston</p> <p>Xakimjanova D.K. - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, "Menejment va marketing" kafedrasini katta o'qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Allayorov SH.A – Toshkent Moliya Instituti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri DSc</p> <p>Shakarov Q.A – TATU "Menejment va marketing" kafedrasini v.b.professori, i.f.n</p>